



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutuvchisi

_____ *ning*
2023-2024-o'quv yiliga 10-sinflar uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

2023-2024-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Vatan yagona	1		
2.	Oila - vatan ichra vatan	1		
3.	Oila - vatan ichra vatan	1		
4.	Oila - baxt qo‘rg‘oni	1		
5.	Oila - baxt qo‘rg‘oni	1		
6.	Oiladagi burch va mas'uliyat	1		
7.	Oiladagi burch va mas'uliyat	1		
8.	Baxt manzillari	1		
9.	Loyiha ishi	1		
II chorak				
10.	Mahalla - qadriyatlar beshigi.	1		
11.	Jamiyatning ma'naviy asoslari.	1		
12.	Din va madaniyat	1		
13.	Din va madaniyat	1		
14.	Dunyo dinlarida insonparvarlik g‘oyalari	1		
15.	Dunyo dinlarida insonparvarlik g‘oyalari	1		
16.	Loyiha ishi/nazorat ishi	1		
III chorak				
17.	Eng katta meros	1		
18.	Buzg‘unchi g‘oyalar	1		
19.	Buzg‘unchi g‘oyalar	1		
20.	Jaholatga qarshi ma'rifat	1		
21.	Jaholatga qarshi ma'rifat	1		
22.	Xavfsiz media ummoni	1		
23.	Soxta xabarlar ortida nima bor?	1		
24.	Loyiha ishi	1		
25.	Baxtli hayot poydevori	1		
26.	Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati	1		
27.	Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati			
IV chorak				
28.	Kasb tanlash sirlari.	1		
29.	Kasb tanlash sirlari.	1		
30.	O‘rganishdan to‘xtamang	1		
31.	O‘rganishdan to‘xtamang	1		
32.	Iroda	1		
33.	Iroda	1		
34.	Loyiha ishi /Nazorat ishi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Vatan yagona

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga vatan yagona mavzusi haqida tushunchalar berish, go'zal tarbiya berish va unga mos chuqur bilim vositasida inson jamiyatda alohida hurmat-izzat, obro'-e'tibor toptirish. Ishonch va mavqega ega bo'lib, moddiy hamda ma'naviy boyliklar yaratib, kelgusi avlodga munosib farzand qilib tarbiyalash.

Tarbiyaviy: har bir ishni puxta, tadbirkorlik bilan bajarishni, buning uchun irodani qanday kuchaytirish kerakligini, maqsadli va mazmunli umr kechirishning mohiyati haqida tushuncha berish, munavvar fikrli insonlar qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: tarbiya ziyosi tufayli ko'ngillar ravshan, qalblar xotirjam, umrlar mazmundorligi haqida tushuncha berish, bugungi tezkor globallashuv jarayonlarda ma'naviy barkamol bo'lib tarbiyalash, turli shakldagi tahdidlarga munosib kurashishni o'rgatish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

SULOLALAR RAVNAQI

Xalqimizda “Vatan ostonadan boshlanadi” degan naql bor. Ostona bu - uy, xonadon, oila demak. Ma'lum bir oila avlodi sulola hisoblanadi. El-yurt manfiyati yo'lida xizmat qilib, sulola a'zolari xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Bu yo'l qolganlar uchun ibrat sanaladi. Har qanday sulola o'z-o'zidan yuqori mavqega ega bo'la olmaydi. Buning uchun el-yurt orasida obro' topgan sulola vakili o'zining ibratli hayot yo'li va ezgu amali bilan taniladi, uning izidan kelayotgan avlodlar esa bu an'anani mazmunan boyitadi. Sulola obro'sini saqlab, oilaviy an'analarga sodiq bo'lgan zurriyotlarni voyaga yetkazish muhimdir...

Ijodiy faoliyat

1. “Ma'naviyat xazinasi” ruknida berilgan Vatan mehri haqidagi fikrni boyi-2. Ona, oila, Vatan so'zlari qo'llanilgan hikmatlarni eslashga harakat qiling. Ularning qanchasi yodingizda qolgan? Bu hikmatlarni siz nima uchun eslab qolganingizni tushuntiring.

3. Quyidagi rasmlar asosida “Oila - Vatan ichra Vatan”, degan hikmatni izohlang.

4. Rasmlar asosida vatanparvarlik, mas'uliyat, burch so'zlariga ta'rif bering.



Bunday tuyg'uni ta'riflash qiyin 2016-yil avgust. Oilamiz bilan Braziliyaning \ Rio-de-Janeyro shahrida o'tayotgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarini kuzatamiz. Vazni 64 kilogramm bo'lgan yurtdoshimiz Fazliddin G'oibnazarov ozarbayjonlik Lorenzo Kollazo Sotomayor bilan boks tushmoqda. Fazliddinning bo'yi raqibidan ko'ra ancha pastroq ekanligi barchamizni xavotirga solardi. Mana, so'nggi raund ham tugadi. G'olib e'lon qilindi. Fazliddin shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Hammamiz xursand, oilamizdagi barchaning nigohi teleekranga qaratilgan. Mamlakatimiz madhiyasi ijro etilmoqda. Shu vaqt 2-sinfda o'qiydigan ukam Muhammadamin shasht bilan o'rnidan turib, hammamizga e'tiroz bildirdi:

Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. "Yagona", "tanho" degan so'zlarni ota-ona, aka-uka va opa-singillarga nisbatan ishlatganingizda qalbingizni qanday tuyg'ular egallaydi?
2. Oilangizdagi tinchlik va oila a'zolaringizning baxt-u saodatidan qanchalik manfaatdorsiz? Nima uchun? "Baxtli oilada baxtli farzandlar voyaga yetadi va jam'iyat ravnaq topadi" degan fikrga qo'shilasizmi?
3. Onangiz uchun biror-bir yaxshilik qilsangiz, minnat qilasizmi? Ona-Vatan uchun-chi? Misol keltiring. Nima uchun Ona va Vatan so'zlari birgalikda ishlatiladi?
4. "Vatan yagona" degan fikrni avvalgi bergan javoblaringiz asosida izohlashga harakat qiling.
5. Nima uchun O'zbekiston "jannatmakon diyor" deb ataladi? Misollar yordamida fikringizni asoslab bering.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oila - vatan ichra vatan

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga oila - vatan ichra vatan mavzusi haqida tushunchalar berish, go'zal tarbiya berish va unga mos chuqur bilim vositasida inson jamiyatda alohida hurmat-izzat, obro'-e'tibor toptirish. Ishonch va mavqega ega bo'lib, moddiy hamda ma'naviy boyliklar yaratib, kelgusi avlodga munosib farzand qilib tarbiyalash.

Tarbiyaviy: har bir ishni puxta, tadbirkorlik bilan bajarishni, buning uchun irodani qanday kuchaytirish kerakligini, maqsadli va mazmunli umr kechirishning mohiyati haqida tushuncha berish, munavvar fikrli insonlar qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: tarbiya ziyosi tufayli ko'ngillar ravshan, qalblar xotirjam, umrlar mazmundorligi haqida tushuncha berish, bugungi tezkor globallashuv jarayonlarda ma'naviy barkamol bo'lib tarbiyalash, turli shakldagi tahdidlarga munosib kurashishni o'rgatish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.

Oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ham iqtidori, obro' va e'tiborini belgilaydigan zanjir halqasidir. Millat esa Vatan, mamlakatning yuragi. Abdurauf Fitrat

"Oilayoki oila boshqarish tartiblari"

1. Ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat “ichki intizomi va totuvligi” deganda nimani nazarda tutgan?

2. Oiladagi iqtidor va mas'uliyatning mamlakat obro' va taraqqiyotidagi o'rni haqida o'z fikringizni bildiring.

Temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo'lgan. Xususan, Saroymulxonim Shohruh 1 Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'beklar tarbiyasi bilan shug'ullangan.

“Ovqatni suzaveraymi?”

1-voqea:

“Ovqatni suzaveraymi?” - oshxonadan Dilbar kelinoyining ovozi keldi. “Onajon, bobom hali dasturxonga kelmadilar”, - deb javob berdi Murodjon. Dasturxon atrofida barcha jam bo‘ldi va osh suzildi. Murodjonning bobosi: “Qani, olinglar, mana men boshladim...” - dedi.

Bu hikoyadagi vaziyat sizga tanishmi? Yuqoridagi vaziyatni oilaviy an‘ana deyish mumkinmi? Bunday holatlar inson ma‘naviyatining shakllanishiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi? Har birimizning hayotda o‘z ijtimoiy vazifalarimiz bor. Ota-ona va farzandlarning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat? Fikrlaringizni asoslash uchun yana qanday vaziyatlarni misol qila olasiz?

“Mahallada duv-duv gap”

3-voqea:

Mehri aya hovliga kirib kelgan mehmonni iliq kutib oldi.

- O‘g‘lingiz Azimjon sizga salom dedilar, - dedi mehmon qiz, keyin

qo‘shib qo‘ydi: - O‘g‘lingiz yozgandilar-ku, syurpriz deb...

- Ha, hozirgina qo‘shnim bilan shu haqida gaplashayotgandik.

- O‘g‘lingiz uylandilar...

- Nima?

Mehri xola ko‘ylagining bo‘yin tugmalarini yechdi, turgan joyida ko‘zlari jovdiradi, behalovat bo‘lib, titragan tovushda, shasht bilan dedi:

- Xotin olibdimi?... Nafasim qaytib ketyapti, dunyo tor bo‘lib ketyapti. Meni bunday bolam yo‘q... Xotin olibdimi? Qayoqqa olib borsa boraversin, men uyimga qo‘ymayman...

Mehmon narsalarini yig‘ishtirib, ketishga hozirlandi.

- Siz qayoqqa? - dedi Mehri aya taajjubda.

- Sizga dardisar bo‘lmay, mensiz ham qayg‘uyingiz oshib ketdi, - javob berdi qiz.

- Shunday vaqtda siz ham meni tashlab ketasizmi? - xafa bo‘ldi Mehri aya.

Mahalla-ko‘y nima deydi? Mo‘ljallab yurgan qizlarim bor edi, bittasi Sayyora, yana biri anovi baland binolarning suratini chizgan arxitektor qiz...

1. Yuqoridagi uchta voqeada qanday oilaviy qadriyatlar, an‘analar, urf-odatlar yashiringan? Ulardagi qaysi qadriyat yoki urf-odatlar sizga ma‘qul bo‘ldi?

2. “Mahallada duv-duv gap” filmidagi Mehri ayaning o‘g‘li xato qildimi? Fikringizni asoslang.

3. Oila qurish, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi qadriyatlar saqlanib qolishi uchun nima qilish kerak?

4. Ma‘nan yetuk, yangilikka intiluvchan, ezgu niyatli, jismonan baquvvat, irodasi kuchli, qat‘iyatli insonlar kamol topishida oilaviy qadriyatlarning ta‘siri qanday ekanini tushuntirib bering. Fikringizni misollar bilan izohlang.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Baxtiyor oilani qanday tasavvur qilasiz? Baxtiyor oilani kimlar yaratadi?

2. Baxtiyor oila qanday mezonlarga asoslanadi?

3. “Oila - mehr-oqibat maskani” degan tushunchaga ta‘rif bering.

4. Baxtiyor oila shakllanishida milliy an‘analarning qanday o‘rni bor?

6. Bobo va buvilarning inson ma‘naviyati, dunyo qarashi, tasavvur va e‘tiqodi shakllanishida qanday o‘rni bor?

7. “Oilada yozilmagan qonun-qoidalar asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib, sayqal topib boraveradi” degan fikrni siz qanday izohlaysiz?

8. Sizning oilangizda qanday an‘analar bor?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tarbiya fanidan 10-sinflarga konspektni to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.


Narxi: 25 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**